

coralclub


Oziq-ovqatga qo'shiladigan biologik faol
qo'shimcha bo'yicha klinik tadqiqot natijalari

B-Luron



Tadqiqot V.I. Razumovskiy nomidagi Saratov davlat tibbiyot universitetida olib borilgan

- 1909-yilda asos solingan
- Eng yirik ilmiy va klinik markazlardan biri
- Universitetning klinik markaziga turli yoʻnalishlarga ixtisoslashgan 14 ta klinika, shu jumladan Travmatologiya, ortopediya va neyroxirurgiya ilmiy-tadqiqot instituti ham kiritilgan.
- Tibbiy muassasa bazasida boʻgʻimlarni endoprotezlash uchun noyob implant ishlab chiqilgan.



Tadqiqot maqsadi:

- **Tizza bo'g'imi artrozi mavjud bemorlarda "B-Luron" biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasining samaradorligini baholash.**

B-Luron qo'shimchasining qo'llanish samaradorligi quyidagi mezonlar bo'yicha baholandi:
VASH* shkalasi asosida og'riq darajasiga ta'siri, IKDC 2020** so'rovnomasi orqali bo'g'imlar funksiyasi, shuningdek obyektiv tekshiruv natijalari (barcha bemorlarning tizza bo'g'implari rentgen va ultratovush yordamida tekshiriladi, har bir guruhdan 20% bemorda MRT o'tkaziladi) hamda SRO*** ning o'rtacha ko'rsatkichi.

*VASH — vizual-analog shkalasi (VASH) og'riq darajasini o'lchash uchun mo'ljallangan. U 10 sm (100 mm) uzunlikdagi gorizontal yoki vertikal chiziq ko'rinishidagi uzluksiz shkaladan iborat bo'lib, uning ikki chetida "og'riq yo'q" va "tasavvur qilish mumkin bo'lgan eng kuchli og'riq" degan nuqtalar joylashgan.

**IKDC 2020 — International Knee Documentation Committee 2000 subjective knee form (IKDC 2000) so'rovnomasi tizza bo'g'imi funksiyasining pasayishini va u bilan bog'liq sport faoliyatidagi cheklovlarni aniqlash hamda baholash maqsadida ishlab chiqilgan edi.

***SRO — S-reaktiv oqsil (SRO) organizmda hozirda kechayotgan yallig'lanish jarayonining informativ ko'rsatkichidir.

Bu oqsil yallig'lanishning o'tkir fazasi markerlaridan biri sanaladi.

Ixtiyoriy ishtirokchilar

Tizza bo'g'imi artrozi tashxisi tasdiqlangan ixtiyoriy ishtirokchilar

Tadqiqot uchun o'rtacha yoshi faol guruhda 52 va placebo guruhida 51 bo'lgan, I va II bosqichli deformatsiyalovchi osteoartroz (DOA)* kasalligiga chalingan har ikki jinsdagi 70 nafar bemor tanlab olindi.

	Активная группа (Би-Лурон + Напроксен)	Группа Плацебо (плацебо + Напроксен)
Deformatsiyalovchi osteoartrozning I bosqichi: - bo'g'im ishlaydi va ozgina shikastlangan - ba'zan yuklamadan so'ng og'riq paydo bo'ladi, lekin u dam olgandan keyin o'tib ketadi.	28	26
Deformatsiyalovchi osteoartrozning II bosqichi: - bo'g'implar harakatchanligi kamayadi va qarsillash kuzatiladi - og'riq uzoq muddat dam olgandan keyingina o'tib ketadi.	7	9
	35	35

Osteoartroz — bo'g'implardagi tog'ayning asta-sekin yemirilishiga olib keladigan surunkali degenerativ kasallikdir. Bu kasallik og'riq va qotib qolish hissi bilan kechadi. Kasallikning rivojlanishidagi asosiy mexanizm turli sabablar tufayli tog'ay to'qimasining ortiqcha yemirilishi hisoblanadi. Dunyoda 250 milliondan ortiq kishi tizza bo'g'imi artrozi bilan aziyat chekmoqda, bu esa osteoartrozning barcha holatlarining 83 foizini tashkil etadi (The Bone and Joint Decade..., 2012).

Tajriba dizayni

Bir markazli, tasodifiy tanlangan, platsebo nazoratidagi, ikki tomonlama tadqiqot

O'tkazish muddati: 3 oy (90 kun)

Faol guruh: Har kuni ovqatdan so'ng 30 ml B-Luron + og'riq sezilgandagina "zaruratga ko'ra" Naproksen dori vositasi

Platsebo guruhi: platsebo + Naproksen dori vositasi (faqat og'riq sezgilarida "zaruratga ko'ra").

B-Luron qo'shimchasining ta'siri vaqt o'tishi bilan namoyon bo'ladi, shu sababli tadqiqot boshida bemorlar og'riq paydo bo'lganda uni Naproksen tabletkalari yordamida bartaraf etishlari tavsiya etilgan.

B-Luron

B-Luron — tarkibida gialuron-xondroitin kompleksi (GXK) mavjud bo'lgan biologik faol oziq-ovqat qo'shimchasi.

U quyidagilarni ta'minlaydi:

- sinovial suyuqlik ishlab chiqarilishini faollashtirish,
- tog'ay to'qimasining oziqlanishi va tiklanishi.

Takibi: xondroitin sulfat, gialuron kislotalari, invertlangan shakar, kaliy sorbat, E vitamini, suv

Platsebo sifatida B-Luronning ta'mi va konsistensiyasiga o'xshatib tayyorlangan, biroq uning faol tarkibiy qismlariga ega bo'lmagan eritmadan foydalanilgan.


Fon uchun foydalanilgan preparat (Naproksen)

Naproksen - og'iz orqali qabul qilinadigan yallig'lanishga qarshi nosteroid preparatlar (YaQNP) guruhiga mansub dori vositasi. YaQNP guruhi preparatlari yallig'lanishga qarshi, og'riq qoldiruvchi va isitma tushiruvchi ta'sirga ega. Ular aksariyat hollarda bo'g'imlarning yallig'lanish va degenerativ kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Bunday kasalliklarga revmatoid artrit, revmatizm, ankilozlovchi spondilit, surunkali podagra artriti, deformatsiyalovchi osteoartroz va osteoxondroz kabi holatlar kiradi.

YaQNP guruhiga mansub dori vositalarini qabul qilish **salbiy asoratlari** rivojlanishining ancha yuqori xavfi bilan bog'liq bo'lib, ularning eng ko'p uchraydigani oshqozon-ichak yo'li shilliq qavatining shikastlanishidir. Shu bois, YaQNP guruhiga mansub dori vositalari oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligida, gastroezofageal reflyuksda va oshqozon-ichak yo'lining boshqa kasalliklarida qo'llanilmaydi. Ularni keksalarga, chekuvchilarga va qon ivishiga ta'sir qiluvchi dorilar bilan birgalikda qabul qilayotganlarga ehtiyotkorlik bilan tayinlashadi. YaQNP guruhiga mansub dori vositalarini uzoq muddat va me'yoridan ortiq ishlatish buyrak va jigarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

YaQNP guruhiga mansub dori vositalari dozasini xavfsiz ravishda pasaytirish imkonini beruvchi dori vositalarini izlash bemorlar uchun ham, shifokorlar uchun ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot o'tkazish sxemasi



B-Luron


klinik tadqiqot natijalari

Xavfsizlik

“0-tashrif – 4-tashrif” oralig‘ida faol guruh va platsebo guruhi o‘rtasida asosiy biokimyoviy ko‘rsatkichlar (eritrotsitlar, leykotsitlar, gemoglobin, trombotsitlar, mochevina, bilirubin, AST, CRO) bo‘yicha statistik jihatdan sezilarli farqlar kuzatilmadi. Ikkala guruhda ham qondagi glyukoza va ALT darajasining ozgina, biroq statistik jihatdan ahamiyatli pasayishi aniqlandi. Bu holat "Naproksen" preparatini qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, lekin shunday bo‘lsa-da, ikkala ko‘rsatkich ham me‘yor chegarasida saqlanib qoldi.

Bu B-Luronning jigar va buyrak funksiyasi ko‘rsatkichlariga hamda qon ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligini bildiradi va uning **qo‘lanilishi xavfsizligining** muhim omili sanaladi.

Natija #1: og'riqning kamayishi




Kuzatuvning 8-haftasiga kelib, faol guruh bemorlarida (B-Luron + Naproksen qabul qilganlar) VASh* og'riq sindromini baholash shkalasi bo'yicha og'riq darajasining statik **statistik jihatdan ishonchli kamayishi** kuzatildi. Bu kamayish butun guruh uchun o'rtacha 31 foizni tashkil etdi.

Platsebo guruhida (platsebo + naproksen) ushbu ko'rsatkich 5,7 foizga pasaydi.

*VASh - vizual-analog shkalasi bo'lib, u NRS raqamli reyting shkalasi bo'yicha tizzadagi og'riqning o'rtacha maqsadli ko'rsatkichini ifodalaydi

Natija #2: YaQNP guruhiga mansub tabletkalar miqdorining kamayishi

Bir hafta davomida qabul qilingan
"Naproksen" tabletkalari soni



Faol guruhda (B-Luron + Naproksen) bir hafta davomida qabul qilingan "Naproksen" tabletkalari soni Platsebo guruhiga (platsebo + Naproksen) nisbatan tezroq kamaydi. Bunda, faol guruhdagi bemorlarda dastlab Platsebo guruhiga qaraganda ancha yuqori og'riq darajasi va bo'g'imlar faoliyatini o'z-o'zini baholashning yomonroq ko'rsatkichlari kuzatilgan.

Tadqiqotning 12 haftasi mobaynida faol guruhda haftasiga qabul qilinadigan tabletkalar soni 6,9 barobar, Platsebo guruhida esa 4,2 barobar kamaydi.


B-Luron

klirik tadqiqot natijalari

coralclub

Natija #3: harakatchanlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi

0-tashrifdan 4-tashrifgacha bo'g'im funksiyasini o'z-o'zini baholash dinamikasi



Bo'g'im funksiyasining o'z-o'zini baholash tahlili* shuni ko'rsatadiki, Platsebo (Platsebo + Naproksen) guruhida bo'g'im funksiyasi deyarli o'zgarishsiz qolgan va hatto tadqiqot yakuniga kelib biroz yomonlashgan.

Faol guruhda (B-Luron + Naproksen) esa statistik jihatdan **bo'g'imlar funksiyasining yaxshilanishida ahamiyatli ijobiy o'zgarish** birinchi tashrifdan to 4-tashrifgacha kuzatildi. Bu guruhda bo'g'im funksiyasining sezilarli darajada yaxshilanishi qayd etildi.

- Xalqaro miqyosda tasdiqlangan "Tizza bo'g'imlari og'rig'i va funksiyasi indeksi" so'rovnomasi yordamida, 2000 IKDC SUBJECTIVE KNEE EVALUATION FORM shkalasi asosida o'tkazildi.

B-Luronning ijobiy ta'siri: ko'rgazmali misollar bilan


Klinik holat #1:

Guruh: B-Luron + Naproksen

Diagnoz: DOA II bosqichi

Natija: Yallig'lanishning bartaraf etilishi, bo'g'im faoliyatining sezilarli darajada yaxshilanishi va og'riq darajasining pasayishi kuzatildi.

Bemor 3-haftada og'riq qoldiruvchi dorilardan foydalanishni to'xtatdi.



Chap tizza bo'g'imining ultratovush tasviri (20.12.2021 holatiga ko'ra): bo'g'im bo'shlig'i kengaygan, unda oz miqdorda bir xil tarkibli suyuqlik mavjud, sinovial parda o'rtacha darajada qalinlashgan (qizil strelka bilan ko'rsatilgan), ichki menisk bir xil tuzilishga ega emas va noaniq chegaraga ega (sariq strelka bilan ko'rsatilgan).

4-tashrifda (14.03.2022) chap tizza bo'g'imining ultratovush tasviri: bo'g'im bo'shlig'i kengaymagan, bo'g'im bo'shlig'ida erkin suyuqlik mavjud emas, sinovial parda qalinlashmagan (qizil strelka bilan ko'rsatilgan), ichki menisk bir jinsli bo'lmagan tuzilishga ega, noaniq chegarali (sariq strelka bilan ko'rsatilgan).


50 yoshli S. ismli bemorning chap tizza bo'g'imining B-Luron qabul qilishidan oldingi va keyingi ultratovush tasviri.

Klinik holat #2:

Guruh: Platsebo + Naproksen

Diagnoz: DOA I bosqichi

Natija: DOA kechishining og'irlashuvi – medial menisk orqa qismining shikastlanish alomatlari paydo bo'lishi. **Bemor tajriba oxirigacha og'riq qoldiruvchi dori qabul qildi.**



Chap tizza bo'g'imining ultratovush tasviri (29.12.2021): chap tizza bo'g'imi bo'shlig'ida o'rtacha miqdordagi erkin suyuqlik mavjud, tashqi va ichki menisklar bir jinsli, tekis va aniq konturga ega.

Tadqiqotda ishtirok etish yakunlanganda chap tizza bo'g'imining ultratovush tasviri (2022-03-24): tizza bo'g'imidagi g'ialin tog'ay va menisklarda degenerativ o'zgarishlar belgilari aniqlandi.

43 yoshli G. ismli bemorning chap tizza bo'g'imining platsebo qabul qilish fonidagi ultratovush tasviri.

Natijalar

B-Luron qo'shimchasini 12 hafta davomida qabul qilish quyidagi natijalarga olib keldi:

- tizza bo'g'imlaridagi og'riq darajasining pasayishi va harakatchanlik, chidamlilik kabi funksiyalarning yaxshilanishi;
- ultratovush tekshiruvi parametrlarining yallig'lanishga oid ijobiy o'zgarishlari;
- og'riq qoldiruvchi dori vositalarini qabul qilish ehtiyojining deyarli **7 barobar** kamayishi.

Xulosa

1. "B-Luron" biologik faol qo'shimchasi I-II bosqichdagi deformatsiyalovchi osteoartroz holatida **samarali yordam** ko'rsatadi.
 2. Osteoartroz bilan og'rigan bemorlarda kasallik kechishini yengillashtiradi, zo'rayish va rivojlanish xavfini pasaytiradi, hayot sifatini oshiradi, shuningdek, sog'liqni saqlash xarajatlarini kamaytirish va bemorlarning mehnat qobiliyatini tiklashni tezlashtirish imkonini beradi.
 3. YaQNP guruhiga mansub og'riq qoldiruvchi dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish natijasida, organizmga tushadigan kimyoviy yuklanmani kamaytirish imkoniyatini beradi.
-
1. "B-Luron" biologik faol qo'shimchasi o'zining **xavfsizligi** va yaxshi ta'sir etishini tasdiqladi, shuningdek, qo'llashda qulay ekanligi ma'lum bo'ldi.